

PAREMIOLOGIK KONSEPT TUSHUNCHASI VA ULARNING MAVZU JIHATIDAN GURUHLANISHI

L.Azimova

Xalqaro innovatsion universitet

Tarix va filologiya fakulteti Filologiya va tillarni

o'qitish yo'nalaishi I kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Sh. Islomova

Annotatsiya. Maqolada paremiologik birliklarning semantik jihati, ularning mavzuiy guruhlariga bo'linishi hamda ularning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada turkiy xalqlarda diniy manbalar, xususan hadislarining maqol va matallar shakllanishidagi roli ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: paremiologik birliklar, maqol, matal, dialektologiya, lingvokulturologiya, milliy kolorit, oila.

Annotation. The article examines the semantic aspects of paremiological units, their division into thematic groups, and their distinctive features. It also discusses the role of religious sources—specifically the Hadith—in the formation of proverbs and sayings among Turkic peoples.

Keywords: paremiological units, proverb, saying, dialectology, linguoculturology, national color, family.

Dunyoda mavjud har bir tilning milliy koloriti undagi madaniy xoslangan lingvistik birliklarda aks etadi. Mazkur unsurlar orasida fanda paremiologik birliklar deya nom olgan barqaror qurilmalar ham borki, ular millat olam manzarasini ifodalash bilan birga milliy lisoniy ongning uzviy, ajralmas butunliklaridan hisoblanadi.

O'TILda paremiologik (yunoncha paroimiya – masal, ramzli hikoya) birliklar turg'un ibora, maqol, matal sifatida izohlangan¹. "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"²da paremiologiya hikmat-fan tarzida talqin etilib, "maqol, matal, aforizmlar singari hikmatli iboralar butunligini o'rganuvchi fan" deya izohlanadi, o'zga lug'atlarda esa lotincha parema – "barqaror", logos – "ta'limot" ma'nolarini anglatishi aytilgan³.

Paremiologik birliklarning tashqi tasnifiga "topishmoq"lar ham mansubdir⁴. Shu kabi, sintaktik qurilmaning barqarorlik tabiatidan kelib chiqib, xalq jonli nutqidagi "tez aytishlar"ni ham paremiologik birlikka kiritishimiz mumkin.

Maqol mazmuniy-grammatik tugallangan, o'z va ko'chma ma'nolarga ega barqaror birikmaga aytiladi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 222.

² Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиилогик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 5.

³ Менглиев Б., Холиёров Ў. Она тили (Комус) – Тошкент, 2009. – Б. 21.

⁴ Махмараймова Ш. Ҳозирги о'zbek tili (leksikologiya). O'quv qo'llanma. – Toshkent, Firdavs-Shoh, 2021. – Б. 374.

Matal termini ko‘p turkiy tillarda uchramaydi. Qozoq tilida esa “pogovorka”ning ekvivalentini bildiradi. Qozoq maqol va matallarini diniy jihatdan o‘rgangan B. Mansurov qozoq tili paremlarini Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadislarini bilan qiyoslab, maqol va matallarda insonning ezgu fazilatlarini ulug‘lovchi, undagi illatlarni qoralovchi ma’nolarni hadislar orqali tushuntirib bergan. Tadqiqotda turkiy xalqlarning maqol va matallari negizida, tadrijiy takomilida hadislarining o‘rni va ahamiyatini leksik-grammatik, lingvokonseptual, lingvosemiotik tomondan tadqiq qilingan. Olim “maqol” so‘zi arabcha “qavlun”dan olingani, bu esa paremiologik birliklar uchun hadislar muhim manba bo‘la olishini ko‘rsatadi⁵.

Iboralar tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasi yoki gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma‘noni anglatadi. Nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik bo‘lib, voqelikni obrazli tasvirlash, uni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq va to‘la gavdalandirishda muhim lingvistik vosita hisoblanadi⁶.

Keltirilganlaridan ma‘lumki, paremiologik birliklar tarkibidan maqol, matal, ibora, topishmoq, tez aytish va hikmatli so‘zlar joy oladi.

Shuningdek, paremlar mavzu jihatidan turli guruhlariga bo‘linadi.

Mehnat bilan bog‘liq paremlar. Inson hayotida muhim jarayonlardan biri mehnatdir. Bu aqliy yoxud jismoniy tomondan bo‘lsin, uning muhim sharti insonni tamaddun jarayonidagi tafakkur tarzini, milliy mentalitetga aloqadorlikni yuzaga chiqarishda zarur manba bo‘la olishi bilan ajralib turadi. Mehnat madaniyatida ham shuni anglash mumkin. “Odamiylik” maqomi mehnat tufayli yuzaga kelgan”⁷ Shuning uchun ham tilimizda mehnat bilan bog‘liq paremlar ko‘plab uchraydi. Jumladan, mehnat- mehnatning tagi rohat, mehnat bilan kishi ulug‘lanadi singari.

“Oila” bosh leksemali maqollar o‘zbek tilidagi paremiologik birliklar orasida muhim o‘rin egallaydi. O.Uralova ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarning semantik tuzilmasini taqqoslab o‘rganib, lingvostatistik ko‘rsatkichlar (ingliz — 324, o‘zbek — 1300) orqali bu holatni tasdiqlaydi. Buning ma‘nosi shundaki, “oila” bosh leksemali maqollarning o‘zbek paremiologik fondidagi ko‘pligi o‘zbek xalqining madaniyatida oila munosabatlarining juda muhim va hayotiy tamoyil ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, “Ter to‘kkanga qop-qop don, to‘kmaganga qayda non”, “Oltin o‘tda chiniqar, odam – mehnatda”, “Hurmating savlating, mehnating davlating”, “Omoch chiqdi – ko‘moch chiqdi”.

Shuningdek, inson a‘zolari nomlari, (poyqadami yoqdi, qo‘li ochiq, beli baquvvat, oyog‘i chaqqon, tili chaqqon, qulog‘iga tanbur chertmoq, qulog‘ini tishlangan, boshi bog‘liq); tabiat bilan bog‘liq tushunchalar (yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelmoq, yulduzni benarvon urmoq, oyning o‘n beshi qorung‘u, o‘n beshi yorug‘, sel bo‘lmoq), mehmon, to‘y, kiyim-kechak, taomlar, do‘stlik, yaxshi-yomon, ahil-inoqlik, qarindosh-urug‘chilik, uy va oshxona jihozlari, hayvonot dunyosi kabi guruhlariga ajratildi.

⁵ Мансуров Б.Б. Религиозно-хадисный аспект в казахских пословицах и поговорках: Автореф. дис. ... док. философ. (PhD) по филол. наук. – Ашхабад, 2018. – 24 с.

⁶ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 124.

⁷ Энгельс Ф. Табиат диалектикаси. – Тошкент, 1955. – Б. 132.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Inson tabiatni, jamiyatni, borliqni, o'zi mavjud bo'lgan hayotni o'rganar ekan, tafakkur qilishda o'ziga aloqador jonli va jonsiz jismlarni bir-biriga qiyoslaydi, tafakkurida tahlil qilib, tahrirlaydi. Bu o'z navbatida, tasavvur olami bilan aloqador ravishda kechadi.

Paremiologiyada ayniqsa maqol va matallar, shuningdek, iboralar va topishmoqlarda muhim bo'lgan figurative leksika ham ularning qurilish konseptini tashkil etuvchi muhim omillardan ekanligi oydinlashadi.

O'zbek xalq shevalaridagi barqaror birikmalarni to'plash, tasniflash, hududiy jihatdan o'rganish, lingvistik tahlil qilish har jihatdan muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 5.
2. Энгельс Ф. Табиат диалектикаси. – Тошкент, 1955. – Б. 132.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 124.
4. Мансуров Б.Б. Религиозно-хадисный аспект в казахских пословицах и поговорках: Автореф. дис. ... док. философ. (PhD) по филол. наук. – Ашхабад, 2018. – 24 с.
5. Maxmaraimova Sh. Hozirgi o'zbek tili (leksikologiya). O'quv qo'llanma. – Toshkent, Firdavs-Shoh, 2021. – B. 374.
6. Менглиев Б., Холиёров Ў. Она тили (Қомус) – Тошкент, 2009. – Б. 21.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 222.